Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy huquqiy rivojlanish sharoitida huquq ijodkorligi hamda huquqni qo'llash jarayonlari ko'p qatlamli institutlar va normativ aktlar bilan murakkablashib bormoqda. Ushbu vaziyatda huquqiy siyosat "yo'naltiruvchi" prinsiplar asosida uyg'unlashtirilmasa, ziddiyatlar, bo'shliqlar, huquqni qo'llash amaliyotidagi nomutanosibliklar kuchayishi mumkin. Garchi ko'plab ilmiy adabiyotlarda huquqiy siyosatga oid yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ammo prinsiplarning maqomi, mohiyati, tasniflash mezonlari va iyerarxiyasiga doir qarashlar turlichadir. Ayniqsa, prinsiplarni "deklarativ shior"dan normativ-tahliliy vositaga aylantirish masalasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilmagan, aksar hollarda prinsiplar shunchaki sanab o'tiladi-yu, lekin ularning normativ jihatdan mustahkamlanish darajasi va amaliy ta'sir ko'rsatish mexanizmlari ajratib ko'rsatilmaydi (Ismoilov, 2020).

Ushbu maqolaning tadqiqot muammosi shundan iboratki, davlat huquqiy siyosatining prinsiplari ko'pincha umumiy huquqiy qadriyatlar bilan aralashib ketadi yoki huquqning umumiy prinsiplari bilan birxillashtiriladi. Buning natijasida huquqiy siyosat alohida kategoriya sifatida tahlil etilmaydi. Shu jumladan, huquqiy siyosat prinsiplarining siyosiy qarorlar qabul qilish sikli, normativ rejalashtirish hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi funksional roli to'liq ochib berilmaydi. Tadqiqotdagi bo'shliq aynan shu nuqtada namoyon bo'ladi: prinsiplarni huquqiy siyosatning alohida bir mezoni va kategoriya sifatida belgilash, ularning amalga oshirish mexanizmlarini ko'rsatish zarurati turadi (Nersesyants, 2012).

Maqolaning maqsadi – davlat huquqiy siyosatining asosiy prinsiplarini nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilish, ularning tizimini asoslash, normativ mustahkamlanish hamda institutsional amalga oshirish mexanizmlari bilan bog'liq mezonlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yiladi: birinchi navbatda, "prinsip" tushunchasining huquqiy siyosat kontekstidagi mazmuniy chegaralari belgilanadi; ikkinchidan esa prinsiplar tizimi va iyerarxiyasi ko'rib chiqiladi; uchinchidan, prinsiplarning normativ ifodalanishi hamda amaliy ta'sirini ta'minlovchi institutsional kafolatlar tahlil qilinadi; oxirgi navbatda esa prinsiplar asosida huquqiy siyosat sifatini baholashning minimal mezonlari taklif etiladi. Tadqiqot doirasida davlat va huquq nazariyasi, huquq ijodkorligi hamda huquqni qo'llashning umumiy qonuniyatlari bir butun tizim sifatida ko'riladi (Khabrieva & Chirkin, 2016).

Tadqiqot doirasida O.T. Xusanov, B.I. Ismoilov, V.S. Nersesyans, T.Y. Xabriyeva, X.T. Odilqoriyev, A.X. Saidov, D.S. Mustafaqulov, N.M. Korkunov kabi olimlarning huquqiy siyosat prinsiplari haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Ularning yondashuvlari davlat huquqiy siyosati prinsiplarining nazariy tahlili hamda ushbu tamoyillarning davlat huquqiy siyosatiga ta'sir ko'rsatish darajasini ko'rishga imkon beradi.

### **Asosiy qism**

Darhaqiqat, huquqiy davlatni qurishga barcha fuqarolar intilishlari, jumladan, o'z faoliyatlarida qonuniylikka rioya etishlari kerak. Shunga ko'ra, huquq prinsiplari huquqning

mohiyatini, uning chinakam tabiatini, jamiyatda tutgan o'rne va ahamiyatini, rivojlanish tendensiyalarini o'zida ifodalaydi, huquqning qanday bo'lishi haqidagi umumiy qoidalarni ifodalaydi va ular bevosita qonunlarda ko'rsatib qo'yiladi yoki uning umumiy mazmunidan kelib chiqadi (Odilqoriyev, 2018).

Tadqiqot metodologiyasi huquqiy siyosat prinsiplari murakkab hamda ko'p qirrali jarayon ekanligini hisobga olgan holda, bir-birini to'ldiruvchi nazariy-analitik yondashuvlarga tayanadi. Normativ-dogmatik metod orqali huquqiy siyosat qanday normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanganligi, ularning qanday huquqiy ma'nolarga ega bo'lishi hamda qaysi holatlarda majburiy kuch sifatida maydonga chiqishi tahlil etiladi. Shu jumladan, bu metod prinsiplarning deklarativ ko'rinishdan normativ tusga aylanish mexanizmlarini ko'rsatishga imkon beradi. Negaki, prinsiplar ko'pincha konstitutsiyaviy normalar, kodekslar, strategik dasturlar yoki huquq ijodkorligi standartlarida ifodalanadi, ularning til birligi hamda huquqiy oqibatlari esa dogmatik tahlil orqali aniqlanadi (Saidov, 2018).

Tizimli tahlil metodi prinsiplarni alohida qoidalar majmui sifatida emas, balki o'zaro bog'liq, iyerarxik va funksional yo'nalish sifatida talqin qilish uchun qo'llanadi. Davlatning huquqiy siyosatida bir prinsipning mazmuni boshqasini cheklashi yoki to'ldirishi mumkin. Masalan, huquqiy aniqlik talabi adolat talqini bilan, barqarorlik talabi esa islohotchilik bilan muvozanatlashishi lozim. Tizimli yondashuv esa aynan shu muvozanatni izohlashga va prinsiplar o'rtasidagi ziddiyatlarni nazariy jihatdan bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishga xizmat qiladi (Ismoilov, 2020).

Qiyosiy-huquqiy metod prinsiplarning universalligi va milliy xususiyatlarini ajratish maqsadida qo'llanadi. Ushbu metod turli huquqiy oilalarda, xususan, kontinental huquq an'analari doirasida prinsiplarning normativ ifodalanishi hamda huquqiy siyosatni boshqarishdagi roli qanday shakllanishini taqqoslash imkonini beradi. Qiyosiy tahlil prinsiplar tizimini "faqat milliy" yoki "faqat umumiy" deb hisoblamasdan, asosiy tamoyillar majmuini saqlagan holda tizimli farqlarni izohlash uchun zarurdir.

Maqolada taklif etilayotgan baholash mezonlarini ishlab chiqishda konseptual-huquqiy modellashtirish metodiga tayanilgan. Prinsiplarni baholash modeli ularning identifikatsiya mezonlari, normativ mustahkamlanish darajasi, amalga oshirish mexanizmlari hamda nazorat ko'rsatkichlari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni yaratishga imkon beradi. Ushbu metod tadqiqotni shunchaki tavsifiy darajada qoldirmay, nazariy xulosalarni amaliy qo'llash mumkin bo'lgan shaklga keltiradi (Khabrieva & Chirkin, 2016).

Tadqiqot natijalari, avvalo, davlat huquqiy siyosati prinsiplari tushunchasining mohiyatini tushunish bilan ifodalanadi. Zamonaviy huquqiy tizimlarning barqarorligi hamda samaradorligi, avvalo, ularning asosini tashkil etuvchi fundamental g'oyalari hamda tamoyillarga – huquq prinsiplari tizimiga bog'liq hisoblanadi. Huquq prinsiplari huquq normalarining mazmunini belgilabgina qolmay, balki huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash hamda huquqiy tafakkur rivojining metodologik negizi sifatida namoyon bo'ladi. Ular oddiy siyosiy maqsadlar emas, balki huquqiy shaklga kirishi, majburiy bo'lishga da'vo qilishi va davlat organlari faoliyati uchun andoza vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy siyosat prinsiplari huquq prinsiplari bilan qisman mos tushadi, ammo ular bir toifa emas. Huquq prinsiplari, asosan, huquq tizimining ichki tuzilishiga daxldor bo'lsa, huquqiy siyosat prinsiplari huquqiy rivojlanish yo'nalishini tanlash hamda normativ rejalashtirishning sifat mezonlarini aniqlash bilan uzviy bog'liqdir (Xusanov, 2019).

Ikkinchi natija esa prinsiplarni identifikatsiya qilishning asoslanishidir. Tadqiqotda prinsipni ajratib ko'rsatish uchun uchta asosiy mezon taklif etiladi: birinchisi, umumiylik

hamda takror qo'llanish xususiyati, ya'ni prinsip alohida institut yoki tor soha bilan cheklanmasdan, huquq ijodkorligi hamda huquqni qo'llashning bir nechta qismlarida yo'naltiruvchi rol o'ynashi lozim; ikkinchi mezon esa normativ yoki rasmiy mustahkamlanish, ya'ni prinsip konstitutsiyaviy normalar, kodekslar, rasmiy sharhlar yoki barqaror yuridik hujjat orqali tan olinishi kerak; uchinchi mezon, baholovchanlik, ya'ni prinsip orqali normativ qaror yoki amaliy harakat "to'g'ri-noto'g'ri", "asosli-asossiz", "mutanosib-nomutanosib" kabi mezonlar bo'yicha baholanishi mumkin bo'lishligi zarur. Ushbu mezonlar prinsipni shunchaki umumiy qadriyatdan farqlashga yordam beradi (Ismoilov, 2020).

Uchinchi natija sifatida esa prinsiplar tizimi hamda iyerarxiyasining konseptual qurilishidir. Tadqiqotda prinsiplar shartli ravishda uch turga ajratiladi: konstitutsiyaviy yo'naltiruvchi prinsiplar, tarmoqlararo boshqaruv prinsiplari hamda amaliy-protsessual prinsiplar. Konstitutsiyaviy yo'naltiruvchi prinsiplar huquqiy siyosatning legitimligi hamda chegaralarini belgilaydi; tarmoqlararo boshqaruv prinsiplari huquq ijodkorligi (normativ-huquqiy hujjatlar) hamda boshqaruv qarorlarining sifat standartlarini belgilaydi; amaliy-protsessual prinsiplar esa huquqni qo'llashda bir xillik, asoslantirilganlik va protsessual kafolatlarni ta'minlaydi. Iyerarxiya shundan iboratki, quyi qatlamdagi prinsiplar yuqori qatlamdagi prinsiplar bilan mos bo'lishi hamda ularga zid natija bermasligi kerak, aks holda huquqiy siyosat ichida konseptual nomuvofiqlik yuzaga keladi (Tikhomirov, 2010).

Ko'plab ishlar prinsiplar tizimini qadriyatlar hamda g'oyalar tizimi sifatida tasvirlaydi: adolat, tenglik, inson qadr-qimmati, huquq ustuvorligi – markaziy yadroni tashkil etadi, qolgan barcha qoidalar va siyosiy yo'nalishlar shu yadrodan ma'no oladi (Adilov, 2025). Ushbu g'oyaning ilmiy qiymati shundaki, huquq prinsiplari hozirgi zamon huquq falsafasi hamda umumiy nazariyadagi aksiologik yondashuvning qisqa formulasi sanaladi, ya'ni prinsiplar – bu faqat texnik qoidalar emas, balki qadriyatlar tizimining normativ ifodasidir. Shuningdek, qadriyatlar insonlarning hayoti va turmushi natijasida vujudga kelib, ularni huquqiy jihatdan tartibga solishga yordam beradigan, normativ darajaga ega bo'lgan tushunchadir. Bundan umumiy xulosa shuki, prinsiplar qadriyatlarni huquq darajasiga ko'taruvchi asosiy ko'priklar vazifasini o'taydi.

To'rtinchi natija esa huquqiy siyosatning asosiy prinsiplarining nazariy poydevori tizimlashtiriladi. Tadqiqotda asosiy prinsiplar sifatida qonun ustuvorligi, legitimlik, barqarorlik, adolat hamda tenglik, kamsitmaslikning umumiy huquqiy ko'rinishi, huquq hamda erkinliklarning kafolatlanganligi, shu jumladan, huquqni qo'llashning bir xilligi kabi yo'nalishlar ajratiladi. Bu yerda natija prinsiplarning sonida emas, balki ularning huquqiy siyosat tizimidagi vazifaviy rolida aks ettiriladi.

Beshinchi natija sifatida prinsiplarni amalga oshirish shartlari ajratib ko'rsatilganini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqot natijasida prinsiplarning hayotiyliigi uch oqim vositasida namoyon bo'ladi: hujjatlar orqali uzatiladigan normativ yo'l, tashkiliy mexanizm hamda tahliliy-amaliy yo'l. Hujjatlar orqali uzatiladigan normativ yo'l prinsiplarning bevosita normativ hujjatlarda aniq hamda tekshiriladigan ko'rinishda ifodalanishini talab etadi. Tashkiliy mexanizm oqimi esa prinsiplarni amalga oshiradigan vakolatli organlar, jarayonlar va monitoring mexanizmlari mavjudligini belgilaydi. Tahliliy-amaliy yo'l esa huquqni qo'llovchi organlar va yuridik muassasalar tomonidan prinsiplarning izchil talqin qilinishi, amaliyotda birxillikni ta'minlaydigan standartlar shakllanishini nazarda tutadi. Ushbu oqimlardan biri uzilib qolsa, prinsiplar deklarativ darajada qolib ketadi hamda huquqiy siyosatning maqsadi bo'lgan sifat ko'rsatkichiga erishilmaydi.

So'nggi mezon sifatida prinsiplar asosida huquqiy siyosat sifatini baholash maqsadida minimal baholovchi mezonlar modeli taklif qilingan. Ushbu modelga ko'ra, har qaysi prinsip bo'yicha uch savol qo'yiladi: prinsip normativ jihatdan qayerda, ya'ni qaysi hujjatda hamda qay ko'rinishda ifodalangan; u qaysi institutlar va jarayonlar orqali bajariladi; amaliyotda u qay holatda talqin qilinadi hamda qanday qo'llash standartlari bilan ifodalanadi. Bu savollar huquqiy siyosatning "qog'ozdagi" darajasidan "ishlaydigan" darajasiga o'tish bosqichiga imkoniyat yaratib beradi (Tikhomirov, 2010). Shuningdek, ushbu qadam prinsiplarga "rasmiy maqom" berilgan yoki berilmaganini ko'rsatadi: ko'plab tizimlarda aynan prinsiplar sifat mezonini sifatida tanlanadi (masalan, Yevropa Ittifoqida qonun ustuvorligi, mutanosiblik) (Nikolenko, 2025). Muallifning fikricha, bu holat ikki jihatdan ahamiyatli: birinchidan, prinsip matnda alohida huquqiy maqomga ega bo'ladi, ikkinchidan esa butun tizim uchun sifat mezoniga aylanadi. Bundan tashqari, ko'plab tizimlarda prinsiplarning o'zi huquqiy siyosat va integratsiya sifatini baholashning standart mezonlariga aylanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqida huquq ustuvorligi va mutanosiblik ham integratsiya samaradorligini, ham milliy qonunchilikning mosligini baholashning asosiy mezonlari sifatida qo'llanadi (Kovalchuk, 2024). Bu o'rinda mutanosiblik prinsipi Yevropa Ittifoqida umumiy tamoyil sifatida sud nazoratining markaziy usuli hisoblanadi va qabul qilingan choralar huquqlarini cheklashda "haddan tashqari emasmi?" degan savol orqali siyosatning legitimligi hamda sifatini o'lchaydi.

Olingan natijalar huquqiy siyosat prinsiplari masalasini huquq nazariyasidagi tamoyillar bilan taqqoslaganda va bog'laganda yanada aniqroq bo'lar edi. Adabiyotlarda prinsiplar huquqning mazmunini yo'naltirib beruvchi umumiy g'oyalar sifatida talqin etilsa, huquqiy siyosat doirasida esa ular nafaqat yo'naltiruvchi, balki baholovchi funksiyani ham bajaradi.

Huquq prinsiplari markaziy ahamiyat kasb etib, unga nafaqat huquq normalari, institutlari yoki tarmoqlari, balki butun huquq tizimi tayaniladi. Ushbu rahbariy tamoyillar davlat organlarining huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash hamda huquqni muhofaza qilish bilan bog'liq butun faoliyati uchun yo'naltiruvchi mash'al bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy tizimning bahamjihatligi, barqarorligi, shuningdek, samaradorligi ularga rioya etish darajasiga bevosita bog'liq. Huquq prinsiplari umummajburiy tusga ega bo'lganligi bois, ular turli huquq tarmoqlari, institutlari, normalari va huquqiy munosabatlar, obyektiv hamda subyektiv huquq o'rtasidagi ichki birlikni, uyg'unlik hamda o'zaro aloqadorlikni ta'minlashga ko'maklashadi.

D.S. Mustafaqulovning fikricha, huquq prinsiplari – bu alohida moddalar emas, balki butun huquq tizimini yo'naltiradigan, unda erkinlik, tenglik, adolat, inson qadr-qimmatini kabi asosiy qadriyatlarni ifodalovchi umumiy g'oyalar va qoidalardir. Ular huquqning "poydevori" bo'lib, qonun ijodkoriga ham, sud va fuqarolarga ham mo'ljal vazifasini bajaradi (Mustafaqulov, 2023). Muallifning fikricha, ushbu g'oyaga ko'ra, huquq prinsiplari yuqorida ta'kidlangani kabi umumiy qadriyatlarga tayanilishi va uzviy bog'liqligini ko'rsatib beradi. Shu jumladan, g'oyaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, huquq prinsiplarining faqatgina normativ ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda, huquqni qo'llash amaliyotida ham foydalanish zarurligi ta'kidlanadi.

D.S. Mustafaqulovning fikrlariga qo'shilgan holda M.Mamajonova huquq prinsiplariga ta'rif berar ekan, ushbu kategoriya inson huquqlari ustuvorligi, adolat hamda tenglik kabi o'zgarmas asoslarga tayanishini va bu qadriyatlar mamlakatning asosiy hujjati hisoblangan Konstitutsiya hamda boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlanishi bilan ahamiyatli ekanini ta'kidlaydi (Mamajonova, 2023). Muallif o'z fikrida inson huquqlarining ustuvorligi, adolat va tenglik kabi tamoyillarga alohida e'tibor qaratadi. Bu tamoyillar, o'z navbatida, huquq tizimining barqaror va o'zgarmas qadriyatlari sifatida talqin qilinadi. Inson huquqlarining

ustuvorligi tamoyili davlat va jamiyat faoliyatining markazida inson manfaatlari turishi kerakligini anglatadi. Ya'ni, har qanday normativ-huquqiy hujjat yoki davlat siyosati, avvalo, insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qilishi zarur. Bu esa huquq tizimining insonparvarlik mohiyatini namoyon etadi. Yuqorida ta'kidlangan qadriyatlardan biri bo'lgan inson huquqlarini davlat darajasiga ko'tarish siyosati mamlakatimiz Konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan.

Huquqiy siyosatni "davlatning huquqiy rivojlanish strategiyasi" sifatida talqin qiluvchi yondashuvlar ham yo'q emas, albatta. Xususan, Tixomirov huquqiy siyosatni boshqaruv ahamiyatiga molik qarorlarning huquqiy shakli, tartibga solish maqsadlariga erishish vositasi sifatida ko'rib, unda prinsiplarga alohida e'tibor qaratadi (Tikhomirov, 2010). Shu bilan birga, bu kabi yondashuvda prinsiplar ko'p hollarda maqsadlar bilan bir qatorda turadi hamda ular o'rtasidagi farqlovchi jihatlar yetarlicha qat'iy belgilanmaydi. Muallif taklif etayotgan identifikatsiya mezonlari aynan shu muammoni qaysidir darajada bartaraf etishga yordam beradi: yuqorida ta'kidlanganidek, prinsiplar umumiy maqsad va qadriyatlar bilan chapishib ketgani sababli, ularni bir-biridan ajratish uchun prinsip baholovchi xarakterga hamda takror qo'llanish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Agar bu usul qo'llanmasa, prinsiplar ro'yxati haddan tashqari ko'payib, nazariy aniqlik yo'qoladi va natijada huquqiy siyosatni ilmiy tahlil qilinishini qiynlashadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda qonun ustuvorligi, huquqiy aniqlik masalalari ko'pincha huquqiy siyosatning alohida mezon sifatida talqin etiladi. Bu borada tadqiqotshunos Fuller o'zining "huquqning ichki axloqi" haqidagi konsepsiyasida normaning aniqligi, umumiyligi, legitimligi va oldindan ma'lum bo'lishi huquqiy siyosatning zaruriy sharti ekanini asoslab bergan (Fuller, 1964). Ushbu yondashuvning kuchli jihati shundaki, u huquqiy boshqaruvni baholash uchun ancha aniq mezonlarni taqdim etadi. Biroq bu mezonlar institutsional ijro etishning tizimli vositalarisiz yetarli natija bera olmaydi. Shu bois maqolada keltirilgan implementatsiya oqimlariga doir xulosa Fuller ta'kidlagan talablarni institutsional kontekst bilan bog'laydi, ya'ni aniqlik prinsipi nafaqat matn shaklida, balki huquqni talqin qilish talablari hamda uni qo'llash amaliyoti bilan uyg'unlikda aks etishi zarur.

Prinsiplar o'rtasidagi kolliziyalar va muvozanat masalasi ilmiy doiralarda ko'p bahslarga sabab bo'lgan. Bu borada Dvorkinning "prinsiplar va qoidalar" farqiga oid yondashuvi e'tiborga molik. Unga ko'ra, prinsiplar o'zining "vazni" (ahamiyati) tufayli yuqoriroq turadigan mulohazalar sifatida muvozanatli tarzda qo'llanadi (Dworkin, 1977). Mazkur qarash huquqiy siyosatda ham alohida ahamiyatga ega, negaki prinsiplar ko'p hollarda bir-biri bilan ziddiyatda bo'ladi: barqarorlik islohotchilik talabi bilan, erkinlikni kafolatlash esa tartib-intizomni ta'minlash maqsadi bilan muvozanatni taqozo etadi. Ushbu maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, bu kolliziyani "bir prinsipni ikkinchisiga qurbon qilish" orqali emas, balki iyerarxiya va amaliy qatlamlar yordamida tartibga solish mumkin. Ya'ni, konstitutsiyaviy yo'naltiruvchi qatlam umumiy chegaralarni belgilab bersa, quyi qatlamlar konstitutsiyaviy prinsiplarning amaliy muvozanatini izlaydi. Bu yondashuv prinsiplar kolliziyasini nazariy jihatdan hal qilinishi mumkin bo'lgan hodisaga aylantiradi.

Mamlakatimiz huquqshunosligida davlatning huquqiy siyosati, huquq ijodkorligi hamda davlat boshqaruvi samaradorligi masalalari yuzasidan muayyan qarashlar shakllangan. Xusanov davlat va huquq nazariyasida huquqiy tartibga solishning umumiy qonuniyatlarini ochib berar ekan, normativlik, tizimlilik va huquqiy kafolatlar masalasiga alohida urg'u beradi (Xusanov, 2019). Bu yondashuv maqoladagi tizimli tahlil natijalarini to'la aks ettiradi, negaki prinsiplar aynan tizimlilik va, ayniqsa, kafolatlar orqali haqqoniy hamda amaliy kuchga

aylanadi. Muallif taklif etgan uch savolga asoslangan minimal baholash mezonlari modeli huquqiy siyosatning ilmiy-tahliliy auditini o'tkazish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Prinsiplar hamda institutsional kafolatlar o'rtasidagi bog'liqlik masalasi bo'yicha rus huquqshunosligida ham diqqatga sazovor tadqiqotlar mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, Korkunov huquqning ijtimoiy tartibga solishdagi rolini, jumladan, huquqiy me'yorlarning ta'sir etish yo'llarini tahlil qilar ekan, huquqning amalda ishlashi ko'p jihatdan institutlar va ijtimoiy munosabatlarga bog'liqligini ko'rsatib beradi (Korkunov, 1909). Bu g'oya maqolada keltirilgan implementatsiya oqimlari natijalariga hamohangdir: prinsiplar institutlar va amaliyotlar bilan ishlaydi. Shu o'rinda ilmiy yangilik shundaki, prinsiplarni faqat normativ doirada tahlil qilish yetarli emasligi, ularni institutsional tizim bilan bog'lash zarurati konseptual jihatdan asoslab beriladi.

### Xulosa

Maqolada davlatning huquqiy siyosati asosiy prinsiplari alohida nazariy kategoriya sifatida asoslantirilib, ularning huquqiy siyosatdagi yo'naltiruvchi hamda baholovchi vazifasi tahlil etiladi. Prinsiplarni aniqlash uchun umumiylik, normativ tan olinishi va baholovchanlik mezonlari taklif etiladi hamda prinsiplar tizimining iyerarxik tuzilishi konstitutsiyaviy, tarmoqlararo va amaliy-protsessual darajalar orqali izohlanadi. Prinsiplarning amalda ishlashi normativ-tizimli va institutsional vositalar bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi. Taklif etilgan minimal baholash modeli huquqiy siyosat sifatini normativ rejalashtirishni izchil tashkil etishga va huquqni qo'llash amaliyotida birxillikni ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Adilov, Z. (2025). Inson huquqlari va adolat: Tarixiy tajriba va zamonaviy tendensiyalar [Human rights and justice: Historical experience and modern trends]. *The Light of Civilization*, 3(1), 45-58. <https://doi.org/10.69691/kzcxdm19>
2. Dworkin, R. (1977). *Taking rights seriously*. Harvard University Press.
3. Fuller, L. L. (1964). *The morality of law*. Yale University Press.
4. Ismoilov, B. I. (2020). *Huquq ijodkorligi nazariyasi va amaliyoti [Theory and practice of lawmaking]*. TSUL Publ.
5. Khabrieva, T. Ya., & Chirkin, V. E. (2016). *Teoriya gosudarstva i prava [Theory of state and law]*. Norm.
6. Korkunov, N. M. (1909). *Lektsii po obshchey teorii prava [Lectures on the general theory of law]*. Printing house of M. M. Stasyulevich.
7. Kovalchuk, V. (2024). Constitutional principles of the law of the European Union. *Bulletin of Lviv Polytechnic National University*, 41.
8. Mamajanova, G., & et al. (2023). Providing guarantees of reliable protection of the rights and freedoms of humans and citizens: Improvement of administrative, criminal and civil legislation. *Scientific Journal of the Fergana State University*, 29(5). [https://doi.org/10.56292/sjfsu/vol29\\_iss5/a27](https://doi.org/10.56292/sjfsu/vol29_iss5/a27)
9. Mustafaqulov, D. S. (2023). Huquq prinsiplari va ularning huquq tizimidagi o'rni [Principles of law and their place in the legal system]. *Review of Law Sciences*, 7(3), 114–122. <https://doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./npee2121>
10. Nersesyants, V. S. (2012). *Obshchaya teoriya prava i gosudarstva [General theory of law and state]*. Norm.

11. Nikolenko, L. (2025). Principles of European Union law as criteria for assessing the effectiveness of legal integration. *Analytical and Comparative Jurisprudence*, (2). <https://doi.org/10.24144/2788-6018.2025.02.189>
12. Odilqoriyev, X. T. (2018). *Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]*. Justice.
13. Republic of Uzbekistan. (2023). The Constitution of the Republic of Uzbekistan. <https://lex.uz/docs/-6445145>
14. Saidov, A. X. (2018). *Konstitutsiyaviy huquq. [Constitutional law]*. Legal Literature Publishing House.
15. Tikhomirov, Yu. A. (2010). *Pravovaya politika: teoriya i praktika [Legal policy: theory and practice]*. Lawinformcenter.
16. Xusanov, O. T. (2019). *Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]*. Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

**O'ZBEKISTON  
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL  
2026-YIL 1-SON

**ОБЗОР  
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА  
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
2026 ГОД № 1

**UZBEKISTAN  
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL  
2026 ISSUE 1

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.1.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.